

CHINGIZ AYTMATOVNING "SOHIL YOQALAB CHOPAYOTGAN OLAPAR" QISSASINING BADIY TAHLILI

G'afforova Madinabonu Elbek qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasi badiiy tahlil qilingan. Asardagi tasvir ifodasi, peyzaj san'ati haqida mulohazalar berilgan. Asardagi yana bir e'tiborga molik narsa - asarda qirg'iz xalqining o'ziga xos madaniyatini, urf-odat-u udumlarini, qabilalarga xos an'analarni - yozuvchi qay darajada yorib berganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: dengiz, olapar, bola, qabila, kinr, ov

KIRISH

Chingiz Aytmatovning barcha asarlari inson va tabiat, milliy o'zlik, axloqiy qadriyatlar hamda zamonaviy muammolarni teran falsafiy talqin qilgan ijodiy merosdir. Uning "Sohil yoqalab chopayotgan olapar" qissasi haqida ham shunday fikr yuritish mumkin.

ASOSIY QISM

Sohil yoqalab chopayotgan olapar. Asar nomini eshitishimiz bilan ko'z oldimizga dengiz sohili yoqalab chopayotgan kattakon bir it haqida yozilgan asar deya o'ylashimiz mumkin. Aslida esa asarni o'qishni boshlashimiz bilan olapar it emas, qoya ekanligini tushunib olamiz. Asar Oxota dengiz sohillarining tasviri bilan boshlanadi:

" Rutubatli, izg'irinli, qop-qorong'i tun qo'ynida hayhotday yastanib yotgan Oxota dengizi sohillari..."

Dengiz tasviridan so'ng uning ustidan siljib boruvchi bulutlar to'planib turadigan qoyalar tasviri boshlanadi:

"Dengiz ustidagi bulutlar qirg'oqdagi tepaliklar sari siljiy boshladi. Dengizning xuddi o'sha qismida, Olapar qo'ltig'iga yaqin yerda dengiz tomon yarim orol shaklida qiyalab turtib chiqqan tepalik - qoya bo'lib, u olisdan qaraganda haqiqatdan ham sohil bo'ylab chopib borayotgan kattakon olapar itni eslatardi"

Asarda tasvirlangan mana shu dengiz bosh qahramon hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni uning burchi dengiz bilan bog'liq. Axir, *"azaldan shunday erkak bo'lib tug'ilgan har bir odam yoshligidanoq dengiz bilan do'stlashuvi, og'a-ini tutinishi lozim, chunki dengiz uni bilib qo'ysin, odam ham dengizni do'st bilib hurmatlaydigan bo'lsin"* - da.

Udumga ko'ra, bosh qahramon - Kiriskning oldida muqaddas, ezgu burch bor. Uni bajarish uchun Ona baliq qabilasi oqsoqoli O'rxon bobo, bolaning otasi Emrayin, tog'asi Milxun bola bilan birgalikda safarga chiqishgan. Ular bolaga chinakam dengiz ovchisi bo'lishni o'rgatish uchun otlandilar. Bu hunarni bolalikdan o'rgatish kerak. Shuning uchun ham eskilar *"Bola - boshdan, hunar - yoshdan"* deb bejiz aytishmagan.

Yozuvchi asarda bolaning ovga kuzatilish tasvirini ham qabilaning udumiga xos tarzda tasvirlaydi. Kiriskni ovga faqat onasi kuzatib qo'yadi. Aslida ovga, buni ikkalasiyam biladi, lekin o'zini hech narsadan xabari yo'qday ko'rsatib, "o'rmonga boraver" deya, xuddi o'rmonga o'tin yig'ishga jo'natayotgandek kuzatib qo'yadi. Ona bu so'zlarni kinrlar uchun aytdi. Kinrlar - bu jin - ajinalar. Qabila qarashiga ko'ra, jin - ajinalar, yovuz ruhlar bolaning ovga ketayotganini bilmasligi kerak. Agar ular otasi Emrayin ham bola bilan birga ekanligini bilib qolishsa, ulardan birontasini halok qilishlari mumkin, birontasi vafot etsa, tirik qolgani vahimaga tushib, qayg'ursin, azob chekib boshqa dengiz va o'rmonga qadam bosmasin. Kinrlar mana shunday yovuz niyatli, doimo odamlarga ziyon yetkazuvchi bo'lishadi. Asarda tasvirlangan qirg'iz qabilasining qarashiga ko'ra, kinrlar doimo bolalarga azob berishgan, ularning ulg'ayib ovchi bo'lmasliklari uchun ularga ziyon-zahmat yetkazib mayib qilib qo'yishgan. Bu qabilaning qarashini animistik qarashning bir ko'rinishi deyish mumkin.

Bu o‘rinda ona obrazi ham o‘ziga xos tarzda tasvirlangan. Ona qay yurtida, qay xalqda bo‘lmasin baribir ona-da. Ona farzandi bilan xayrlashib, "bir lahza jim qoldi". Bu sukunatni yozuvchi onaning tashvishli iltijosi, umidlari yashiringan deya izohlab ketadi. Ona onaligini qiladi-da. O‘g‘lining va erining bu safariga bir necha kun oldin tayyorlanishni boshlaydi. Ammo jinlar biron narsani bilib qolishmasin, ularga ziyon yetkazmasin deya ularni tanimayotgandek, qayerga ketganligini bilmayotgandek tutardi o‘zini, qo‘rqqanidan tashvishlarini yuzaga chiqarmasdi.

Ona obrazi qahramonning tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Onaning tashvishlari va yashirin qo‘rquvi, qabilaning animistik qarashlariga mos keluvchi ehtiyotkorligi orqali Aytmatov onalik hissiyotlarining universalligini ko‘rsatadi. U o‘g‘lini kuzatib, ichki tuyg‘ularini yashirgani bilan, uning yuragida xavotir va orzular yashiringan.

Kirisk obrazida yosh bolaning shakllanishi va qabila an‘analariga moslashuvi ifodalanadi. Otasi Emrayin va tog‘asi Milxunning o‘g‘il bolani ovchilikka tayyorlash jarayoni orqali yozuvchi ota-onaning mas‘uliyatini, shu bilan birga, yosh avlodga hunar o‘rgatish jarayonini yorqin ochib beradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Chingiz Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasi inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni, milliy madaniyat va qadriyatlarning ahamiyatini chuqur falsafiy va badiiy talqin etuvchi asardir. Unda qirg‘iz xalqining urf-odatlarini, an‘analari va animistik qarashlari orqali inson hayoti va tabiatni anglash jarayoni ko‘rsatilgan. Asar qahramonlari, xususan Kirisk va uning otasi Emrayin obrazlari orqali yozuvchi insonning hayotdagi muqaddas burchlarini bajarish yo‘lida jasorat, mas‘uliyat va ruhiy kuchni ulug‘laydi. Dengiz va qoya tasvirlari esa inson hayotidagi tabiatning beqiyos ahamiyatini ramziy va badiiy uslubda ochib beradi. Aytmatovning bu qissasi nafaqat qirg‘iz xalqining, balki butun insoniyatning axloqiy qadriyatlari haqida o‘ylashga chorlaydi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Оқ кема: қиссалар/Чингиз Айтматов. Қирғизча ва русчадан Асил Рашидов таржималари. - Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2003 йил. -352 б

2. <https://kun.uz/news/2023/03/04/sohil-yoqalab-chopayotgan-olapar>
3. [sabrni-sayqallaydigan-asar?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F03%2F04%2Fsohil-yoqalab-chopayotgan-olapar-sabrni-sayqallaydigan-asar](https://kun.uz/news/2023/03/04/sohil-yoqalab-chopayotgan-olapar-sabrni-sayqallaydigan-asar)
4. Maqsud Sattorov. Chingiz Aytmatovning badiiy kashfiyotlari. //”Jahon adabiyoti” jurnali. 2009.
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sohil_yoqalab_chopayotgan_olapar
6. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/download/1255/13>